



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ISSN: 2992-9083

O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI

VOL. 2 ISS: 2 (2025)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TDIU, Islom Karimov 49, 100066, Toshkent



<https://insurance.tsue.uz>

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, falsafa fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, falsafa fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, fan nomzodi, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, falsafa fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, falsafa fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash kafedrasi mudiri, dots.).
10. Quldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasi professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasi mudiri, falsafa fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasi mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, falsafa fanlari dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Beshta tashabbus markazi kafedra mudiri, t.f.n.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasi mudiri, falsafa fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasi professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, t.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasi professori v.b., falsafa fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasi professori v.b.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasi dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasi dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasi dotsenti, t.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasi dotsenti, t.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasi dotsenti, t.f.n.).

№	MUNDARIJA	Page
1.	MILLIY SUG'URTAS BOZORINING INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	4
2.	MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA PENSIYA VA HAYOT SUG'URTASINING AHAMIYATI <i>Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi</i>	8
3.	SUG'URTA MEXANIZMLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI VA IMKONIYATLARI <i>Ko'chimov Abdujamil Hamraqulovich, To'g'izova Malika Soxib qizi</i>	11
4.	YANGI O'ZBEKISTONDA AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYALASH BORASIDA DAVLAT TIBBIY SUG'URTASINING AHAMIYATI <i>Ametova Fotimajon Rozmatovna</i>	14
5.	O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA HAYOT SUG'URTA SOHASINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI <i>Matiyazova Sanobar Rajabbayovna</i>	17
6.	TAKAFUL: ISLOMIY SUG'URTANING ZAMONAVIY IMKONIYATLARI VA RIVOJLANISH MUAMMOLARI <i>Xudoyberdiyev Umid Murodovich</i>	20
7.	GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIK SHAROITIDA JAHON SUG'URTA BOZORIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR <i>Xalikov Umid Raxmatullaevich</i>	24
8.	SUG'URTA TASHKILOTLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI <i>Umarova Gulnora Akromovna</i>	28
9.	ISLOMIY MOLIYALASH: TAMOYLLARI, TUZILISHI VA ISTIQBOLLARI <i>Yarashova Vasila Kamalovna, Yuldashkhujayev Saidusmonkhuzha Botir ugli</i>	30
10.	BUDJET TASHKILOTLARIDA ASOSIY VOSITALARNING ESKIRISHI VA UNGA QO'YILADIGAN CHORA-TADBIRLAR <i>Ashirova Gulchehra Abdug'aniyevna</i>	33
11.	MINTAQAVIY IQTISODIYOTNING MAMLAKAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI <i>Toshaliyeva Saodat Toxirovna</i>	36
12.	SANOAT TARMOG'INING IQTISODIY SALOHİYATINI BAHOLASHDA EKONOMETRIK USULLAR VA OMILLAR <i>Kasimov Azamat Abdukarimovich</i>	39
13.	TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING RENTABELLIGINI BAHOLASHDA EBITDA ASOSIDA BALLI REYTING TIZIMINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI <i>Abdullayev Zafarbek Safibullayevich</i>	42
14.	O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK BARQARORLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI ANIQLASH <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li</i>	48



SUG'URTA MEKANIZMLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI VA IMKONIYATLARI

Ko'chimov Abdujamil Hamraqulovich

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali o'quv-uslubiy bo'limi boshlig'i, "Iqtisodiyot va turizm" kafedrasida dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi.

To'g'izova Malika Soxib qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

"Iqtisodiyot va turizm" kafedrasida 1-kurs magistranti.

malikatugizova47@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss2/263

Annotsatsiya: Mazkur maqolada sug'urtaning milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni va uning iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashdagi roli tahlil qilingan. Sug'urta bozori mexanizmlarining moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, risklarni boshqarish va favqulodda holatlarning salbiy oqibatlarini yumshatishdagi ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida sug'urtaning iqtisodiy tizimga ta'siri hamda O'zbekistonda ushbu sohaga oid islohotlarning iqtisodiy xavfsizlikka qo'shayotgan hisssasi ko'rib chiqilgan. Maqolada sug'urta xizmatlarini kengaytirish va aholi orasida sug'urta madaniyatini shakllantirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: sanoat, iqtisodiy-matematik ulullar, ekonometrik model, tahlil, omil, iqtisodiy rivojlanish, prognoz.

Abstract: This article analyzes the role of insurance in the national economy and its role in ensuring economic security. The importance of insurance market mechanisms in ensuring financial stability, risk management and mitigating the negative consequences of emergencies is highlighted. Also, based on the experience of developed countries, the impact of insurance on the economic system and the contribution of reforms in this area to economic security in Uzbekistan are considered. The article substantiates the need to expand insurance services and form an insurance culture among the population.

Keywords: insurance, economic security, financial stability, risk management, insurance market, economic system, emergencies, insurance culture, economy of Uzbekistan, financial protection.

Абстрактный: В статье анализируется роль страхования в экономике страны и его роль в обеспечении экономической безопасности. Подчеркивается важность механизмов страхового рынка в обеспечении финансовой устойчивости, управлении рисками и смягчении негативных последствий чрезвычайных ситуаций. Также на основе опыта развитых стран рассмотрено влияние страхования на экономическую систему и вклад реформ в этой сфере в экономическую безопасность в Узбекистане. В статье обосновывается необходимость расширения страховых услуг и формирования страховой культуры среди населения.

Ключевые слова: страхование, экономическая безопасность, финансовая устойчивость, управление рисками, страховой рынок, экономическая система, чрезвычайные ситуации, культура страхования, экономика Узбекистана, финансовая защита.

Kirish (Введение/ Introduction)

Bugungi globalashuv jarayonida dunyo iqtisodiyoti tobora murakkablashib borayotgani tufayli har bir davlat o'zining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratmoqda. Iqtisodiy xavfsizlik — bu davlatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini, tashqi va ichki iqtisodiy tahdidlarga nisbatan chidamliligini, aholining turmush darajasini saqlab qolish va oshirish imkoniyatlarini anglatadi. Ushbu omillarni ta'minlashda samarali iqtisodiy mexanizmlardan biri sifatida sug'urta tizimi muhim o'rin egallaydi. Sug'urta tizimi — bu nafaqat shaxsiy moliyaviy barqarorlikni ta'minlash vositasi, balki butun iqtisodiyotning himoya qalqoni sifatida namoyon bo'ladi. Har bir kutilmagan moliyaviy xavf — bu nafaqat bir fuqaroning yoki korxonaning muammosi, balki umumiy iqtisodiy tizimga ta'sir ko'rsatadigan omildir. Aynan shu nuqtai nazardan sug'urtaning iqtisodiy xavfsizlikdagi o'rni tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda tabiiy ofatlar, texnogen falokatlar, sog'liq bilan bog'liq muammolar, avtohalokatlar, ishlab chiqarishdagi uzilishlar va boshqa turdagi tahdidlar aholining va biznes tuzilmalarining iqtisodiy barqarorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu kabi xavflarning salbiy oqibatlarini yumshatish, moliyaviy yo'qotishlarning oldini olish va ularni kompensatsiya qilishda sug'urta eng muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, sug'urta sohasining rivojlanishi investitsion muhitni yaxshilash, bank-moliya sektorini barqarorlashtirish, budjetga tushadigan yukni kamaytirish va aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish imkonini beradi. Sug'urta tizimi orqali yig'iladigan mablag'lar uzoq muddatli sarmoyalarga yo'naltirilib, iqtisodiy o'sishga ijobiy turki beradi.

Mazkur maqolada sug'urtaning iqtisodiy xavfsizlikdagi o'rni, uning funksiyalari, tahlillar, jahon va milliy tajriba hamda istiqbolli yo'nalishlar

tahlil qilinadi. Shu orqali ushbu tizimni chuqurroq tushunish va uning milliy iqtisodiyotdagi rolini to'g'ri baholash imkoniyati yaratiladi.

Adabiyotlar sharhi (Обзор литературы/Literature review)

Sug'urta tizimi bugungi kunda global iqtisodiy tizimda xavflarni boshqarish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy himoya choralari kuchaytirishning muhim vositasi sifatida qaralmoqda. Sug'urta orqali nafaqat shaxsiy va korporativ xavflar kamaytiriladi, balki makroiqtisodiy barqarorlik ham ta'minlanadi. Shu bois, ilmiy adabiyotlarda sug'urta tizimi va iqtisodiy xavfsizlik o'rtasidagi o'zaro aloqalar turli aspektlarda o'rganilgan. Xalqaro miqyosda olib borilgan tadqiqotlar sug'urta mexanizmlarining iqtisodiy xavfsizlikdagi rolini asoslashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Skipper va Kwon (2007) tomonidan olib borilgan tadqiqotda sug'urtaning moliyaviy vositachi sifatidagi o'rni, kapital bozorlaridagi barqarorlikka ta'siri va investitsiya muhitiga bo'lgan ijobiy ta'siri alohida ta'kidlangan. Ularning fikricha, sug'urta tizimi orqali iqtisodiy shoklarni yumshatish, moliyaviy risklarni kamaytirish va jamiyatning umumiy iqtisodiy salohiyatini oshirish mumkin. Swiss Re, Munich Re kabi yirik sug'urta kompaniyalari va qamrovli xalqaro tadqiqot institutlari tomonidan e'lon qilingan yillik tahlillar ham ushbu yo'nalishda muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Swiss Re Institute'ning 2022-yilgi hisobotida aytilishicha, rivojlanayotgan davlatlarda sug'urta qamrovi kengaygani sari iqtisodiy yo'qotishlar kamayib, milliy xavfsizlik darajasi mustahkamlanmoqda.

Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) hisobotlarida esa sug'urta tizimi barqaror iqtisodiy o'sish uchun infratuzilmaning ajralmas elementi sifatida e'tirof etiladi. Jahon bankining 2020-yilgi "Risk

Financing and Insurance” hisobotida qayd etilishicha, iqlim o'zgarishi, pandemiya va boshqa global tahdidlar sharoitida sug'urta mexanizmlarining mavjudligi mamlakatlar iqtisodiy tizimini inqirozga qarshi bardoshlilik bilan ta'minlaydi. Nazariy jihatdan, sug'urta va iqtisodiy xavfsizlik o'rtasidagi bog'liqlik Markaziy banklar va moliyaviy barqarorlikni tadqiq qiluvchi markazlar tomonidan ham ko'p bora o'rganilgan. Mishkin (2010) va Levine (2005) kabi mualliflar moliyaviy tizimlar rivojining iqtisodiy xavfsizlikka qo'shgan hissasini aniqlaganlar. Ularning izlanishlariga ko'ra, sug'urta sektori moliyaviy tizimning muhim bo'g'ini bo'lib, resurslarni samarali taqsimlash, shartnomaviy ishonchni oshirish va investitsion risklarni kamaytirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Mahalliy olimlar, jumladan I. Xodjeyev, A. G'ulomov, S. Mirzayev kabi iqtisodchilar O'zbekiston sug'urta bozorining rivojlanish darajasi, mavjud muammolar va istiqbollariga e'tibor qaratganlar. Xodjeyev o'z maqolasida respublikadagi sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligi va ularning iqtisodiy xavfsizlikka qo'shayotgan hissasini kompleks tahlil qilgan. U, xususan, sug'urta sektori orqali kichik biznes subyektlarini risklardan himoya qilish, qishloq xo'jaligi risklarini kamaytirish va tabiiy ofatlarga tayyorgarlikni kuchaytirish imkoniyatlarini ko'rsatib bergan [1]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlarida ham sug'urta tizimini isloh qilish, raqamlashtirish va jamoaviy ishonchni oshirish borasida muhim vazifalar belgilangan. 2021-yildan boshlab amalga oshirilayotgan “Milliy sug'urta tizimini rivojlantirish strategiyasi” doirasida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda sug'urta sohasining strategik roli qayd etilgan [2]. Ayrim adabiyotlarda sug'urtaning noan'anaviy xavf-xatarlar, jumladan kibernetik xavfsizlik, pandemiyalar va migratsiya oqibatlari bilan bog'liq risklarni boshqarishdagi o'rni ham ko'rib chiqilgan (Brown & Posner, 2018) [3]. Bu esa sug'urta mexanizmlarining zamonaviy xavf-xatarlar qarshisida iqtisodiy barqarorlikni saqlashdagi rolini kengaytiradi. Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, sug'urta tizimi nafaqat iqtisodiy xavflarni kamaytirish, balki iqtisodiyotni ijtimoiy barqarorlik, moliyaviy ishonchlik va strategik xavfsizlik nuqtayi nazaridan mustahkamlash vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli, sug'urta tizimi va iqtisodiy xavfsizlik o'rtasidagi o'zaro aloqalarni kompleks, tizimli va empirik jihatdan chuqur o'rganish zarurati ortib bormoqda.

Tadqiqot metodologiyasi (Методы/Methods)

Ushbu ilmiy tadqiqotda sug'urta mexanizmlarining iqtisodiy xavfsizlikka ko'rsatadigan ta'siri va u orqali yuzaga keluvchi iqtisodiy imkoniyatlar tizimli ravishda o'rganildi. Tadqiqot quyidagi metodologik yondashuvlar asosida olib borildi:

1. Nazariy tahlil – Sug'urta tizimining nazariy asoslari, iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ilmiy adabiyotlar va amaliy tadqiqotlar asosida o'rganildi.

2. Taqdimotli statistik tahlil – O'zbekiston Respublikasi hamda qator xorijiy davlatlarda sug'urta bozori rivoji, sug'urta to'lovlari hajmi, aholi va tadbirkorlik subyektlari ishtirokidagi faollik ko'rsatkichlari statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilindi.

3. Solishtirma (komparativ) tahlil – O'zbekiston sug'urta tizimi boshqa rivojlangan mamlakatlar tajribasi bilan taqqoslanib, ularning iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashdagi o'rni aniqlab berildi.

4. Ekspert baholash usuli – Sug'urta sohasi mutaxassislari va iqtisodiy xavfsizlik sohasidagi ekspertlar fikrlari asosida mavjud muammolar va istiqbolli imkoniyatlar aniqlab chiqildi.

5. SWOT tahlil – Sug'urta tizimining iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri nuqtai nazaridan kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlar va xavf-xatarlar o'rganildi.

Tadqiqotda sifat va miqdoriy tahlil usulbarining uyg'unlashuvi orqali mavzuga kompleks yondashuv ta'minlandi. Olingan natijalar esa tavsiyalar ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi (Анализ и результаты/Analysis and results)

Sug'urta mexanizmlarining iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashdagi o'rni va imkoniyatlari yuzasidan o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy sug'urta tizimi nafaqat moliyaviy yo'qotishlarning oldini olishda, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Xususan, tabiiy ofatlar, ishlab chiqarishdagi texnik nosozliklar, transport va logistika sohasidagi risklar, sog'liqni saqlash yoki pandemiya xavflari kabi omillar iqtisodiy xavfsizlikka bevosita tahdid soluvchi omillar sirasiga kiradi. Sug'urta tizimi esa ushbu risklarning moliyaviy

oqibatlarini kamaytirish va iqtisodiy faoliyatni davom ettirish imkonini yaratadi.

Iqtisodiy xavfsizlik — bu davlatning siyosiy barqarorligi, fuqarolarning hayot sifati va umumiy farovonlik darajasi bilan chambarchas bog'liq. Sug'urta tizimi esa ushbu xavfsizlikni ta'minlashda strategik vosita bo'lib xizmat qiladi. Barqaror va ishonchli sug'urta bozori mavjud bo'lgan davlatlarda nafaqat iqtisodiy tizim, balki ijtimoiy tuzum ham barqaror ishlaydi. Shuning uchun, sug'urtani rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ajralmas qismiga aylanishi zarur.

1. Jahon sug'urta bozori ko'rsatkichlari

Jahon sug'urta bozori yildan-yilga kengayib bormoqda. Swiss Re Instituti ma'lumotlariga ko'ra:

- 2023-yil yakunlariga ko'ra global sug'urta mukofotlari hajmi 7,1 trillion AQSh dollariga yetgan.
- Bu raqam 2020-yilga nisbatan 13% ga o'sishni bildiradi.
- Eng katta ulushni hayotni sug'urtalash tashkil qiladi – taxminan 3,6 trillion dollar.
- Eng rivojlangan bozorlarda sug'urtaning YAIMdagi ulushi 8-12% atrofida bo'lsa, ko'plab rivojlanayotgan davlatlarda bu ko'rsatkich 2-3% atrofida.

2. O'zbekistonda sug'urta bozorining hozirgi holati

O'zbekiston sug'urta bozori ham bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda:

- 2022-yilda O'zbekiston sug'urta bozorida to'plangan umumiy mukofotlar hajmi 2,3 trillion so'mni tashkil etdi.
- 2023-yil yakuniga ko'ra bu ko'rsatkich 3 trillion so'mga yaqinlashdi — bu 30% ga yaqin o'sish degani.
- Sug'urtaning YAIMdagi ulushi atigi 0,5% ni tashkil qiladi (2023), bu esa rivojlangan mamlakatlarga nisbatan past ko'rsatkich.
- Eng katta ulushni hayotni sug'urtalash emas, balki mol-mulk va transport sug'urtasi egallaydi.
- Faoliyat yuritayotgan sug'urta kompaniyalari soni: 32 ta, shundan 4 tasi davlatga qarashli.

Raqamlar shuni ko'rsatmoqdaki, sug'urta bozori iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda kuchli moliyaviy asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonda bu soha hali to'laonli rivojlanmagan bo'lsa-da, unda ulkan salohiyat bor. Aholi o'rtasida sug'urta madaniyatini oshirish, qonunchilikni takomillashtirish va raqamlashtirish orqali sug'urta iqtisodiy xavfsizlikning mustahkam tayanchiga aylanishi mumkin.

Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot va barqarorlikni ta'minlashda sug'urtaning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Sug'urta tizimi nafaqat shaxsiy yoki korporativ moliyaviy xavflarni qoplashga xizmat qiladi, balki butun mamlakat miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlovchi strategik mexanizm sifatida ham namoyon bo'ladi. Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatdiki, rivojlangan sug'urta bozori iqtisodiy barqarorlik, investitsion muhit va aholining farovon hayotini kafolatlashda muhim vositadir.

Iqtisodiy xavfsizlik — bu davlat, jamiyat va har bir fuqaroning moliyaviy, ijtimoiy va iqtisodiy tahdidlar oldida barqarorligini saqlab qolishidir. Sug'urta esa aynan shu xavf-xatarlarni kamaytirish, yo'qotishlarning moliyaviy oqibatlarini yengillashtirish, ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Germaniya sug'urtaning iqtisodiy xavfsizlikdagi rolini institutsional darajada yo'lga qo'ygan davlatlardan biridir. Bu yerda sog'liqni saqlash, pensiya, ishsizlik, nogironlik va qarilik holatlari uchun ijtimoiy sug'urta majburiy hisoblanadi. Har bir fuqaro o'z daromadining muayyan qismini ushbu tizimga ajratadi, bu esa davlat byudjetiga ortiqcha yuklamasiz ijtimoiy himoyani ta'minlaydi.

AQShda sug'urta iqtisodiyotning eng yirik sektorlaridan biridir. Bu yerda sug'urta xizmatlari xususiy kompaniyalar tomonidan taklif etiladi. Tibbiy, avtomobil, uy-joy va hayot sug'urtasi aholining moliyaviy barqarorligini saqlab qolishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Hindistonda aholining katta qismi past daromadli qatlamga mansub. Shunga qaramay, hukumat subsidiyalangan ijtimoiy sug'urta dasturlarini ishlab chiqqan: “Ayushman Bharat” — eng kambag'allar uchun sog'liqni sug'urtalash tizimi, “PMFBY” — fermerlar uchun hosil sug'urtasi.

Afrika davlatlarida, jumladan Keniyada, mobil texnologiyalar sug'urta xizmatlarini yetkazishning asosiy yo'lga aylangan. “M-TIBA” kabi ilovalar orqali fuqarolar sog'liq uchun kichik miqdorlarda to'lov qilib, sug'urta polislariga ega bo'ladi.

Sug'urta tizimi xalqaro darajada ham iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi:

• Xalqaro qayta sug'urta tarmoqlari yirik tabiiy ofatlar yoki moliyaviy inqiroz holatlarida mamlakatlar iqtisodiyotini qo'llab-quvvatlaydi.

• Sug'urta kompaniyalari investitsion fondlar orqali infrastrukturaviy loyihalarni moliyalashtiradi.

• Pandemiya va global xavflar davrida aholining salomatligi va biznes faoliyatining tiklanishini tezlashtiradi.

Masalan, COVID-19 pandemiyasi vaqtida kompaniyalar, tibbiyot muassasalari va davlatlar sug'urta mexanizmlari yordamida zararni kamaytirishga erishdilar. Bu esa sug'urtaning global iqtisodiy xavfsizlikdagi o'rini yana bir bor tasdiqladi.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, sug'urta tizimi nafaqat moliyaviy vosita, balki strategik xavfsizlik instrumentidir. U shaxsiy, korporativ va milliy darajadagi moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi, iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi, investitsiyalarni himoya qiladi va ijtimoiy himoya tizimining muhim elementiga aylanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar ham texnologiyalar va davlat siyosati orqali sug'urta sohasini rivojlantirish orqali iqtisodiy xavfsizlikni kuchaytirishga harakat qilmoqda. O'zbekiston uchun ham bu yo'nalishda xorijiy tajribadan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

Tahlil qilingan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki:

• Sug'urta bozori rivojlangan davlatlarda iqtisodiy zarbalarni yumshatish darajasi yuqori bo'lgan, bu esa davlat byudjetiga ortiqcha bosim tushmasligini ta'minlagan;

• Ijtimoiy himoya tizimida sug'urtaning mavjudligi aholining iqtisodiy faolligini oshirib, iste'mol va investitsiya salohiyatini kuchaytirgan;

• Korxonalar darajasida esa sug'urta moliyaviy barqarorlikni ta'minlagan va ularni uzoq muddatli rivojlanishga yo'naltirgan.

O'zbekiston misolida olib borilgan tahlillar ham sug'urta sohasining rivojlanishida sezilarli o'sish tendensiyasi mavjudligini ko'rsatmoqda. Biroq, hali ham mavjud imkoniyatlar to'liq ishga solinmagan, ayniqsa qishloq xo'jaligi, kichik biznes va ijtimoiy sug'urta yo'nalishlarida. Shuningdek, aholi orasida sug'urtaning ahamiyati to'g'risidagi xabardorlik darajasi pastligi, ishonch muammosi va xizmatlar sifati hali ham dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi muhim jihatlar ajratib ko'rsatildi:

1. Sug'urta iqtisodiy xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida strategik yondashuvni talab qiladi;

2. Sug'urta turlarini diversifikatsiya qilish orqali iqtisodiy tizimning turli sohalarini riskdan himoyalash mumkin;

3. Raqamli texnologiyalarni sug'urta tizimiga integratsiyalash esa xizmatlar tezligi va ishonchligini oshiradi;

4. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlovchi siyosat (subsidiya, soliq imtiyozlari, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish) sug'urta sohasining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shu asosda xulosa qilish mumkin, sug'urta mexanizmlari iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda samarali vosita bo'lib, ularni tizimli rivojlantirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishish mumkin.

Xulosa va takliflar (Заключение/Conclusion)

Sug'urta zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot va barqarorlikni ta'minlovchi muhim moliyaviy vosita sifatida bugungi global va milliy iqtisodiy tizimlarda o'ziga xos strategik o'ringa ega. U faqatgina moliyaviy yo'qotishlarni qoplovchi mexanizm bo'lib qolmay, balki kengroq ma'noda iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlovchi, fuqarolar va biznes subyektlari uchun ishonchli kafolat yaratuvchi tizimdir. Dunyo amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar sug'urtaning imkoniyatlaridan foydalanish, ijtimoiy tenglik, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, investitsiyalarni jalb etish va moliyaviy tahdidlarga qarshi kurashishda faol foydalanmoqdalar.

Sug'urta orqali:

• tabiiy ofatlar, iqtisodiy inqirozlar, sog'liq va hayotga tahdid soluvchi holatlar oqibatida yuzaga keladigan yo'qotishlar kamaytiriladi;

• ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida barqarorlik ta'minlanadi;

• davlat byudjeti yukini kamaytirish orqali ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanadi;

• fuqarolarning kelajakka ishonchi ortadi, bu esa iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi.

Shuningdek, sug'urta kompaniyalari moliyaviy bozorlarning faol ishtirokchisiga aylangan. Ular yig'ilgan mablag'larni banklar, fond birjalari va infratuzilmaviy loyihalarga yo'naltirib, iqtisodiy rivojlanishga bevosita xizmat qiladi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida pandemiya, global isish, tabiiy ofatlar, urushlar va kiberxavfsizlik kabi xavf-xatarlar fonida sug'urtaning o'rni yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Sug'urta orqali aholining moliyaviy barqarorligini oshirish, ijtimoiy himoyani kengaytirish, investitsion muhitni yaxshilash orqali umumiy iqtisodiy xavfsizlik darajasini sezilarli oshirish mumkin. Shunday qilib, sug'urta nafaqat tahdidlarni bartaraf etuvchi himoya vositasi, balki barqarorlik va taraqqiyotga yo'l ochuvchi muhim iqtisodiy instrument sifatida qaralishi zarur. Uni kuchli tizim sifatida shakllantirish har qanday davlatning strategik vazifalaridan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литература/ References):

1. Qo'ldoshev Q.M. O'zbekistonda o'zaro sug'urtalashning metodologik asoslarini takomillashtirish //08.00.07—"Moliya, pul muomalasi va kredit" ixtisosligi bo'yicha i.f.d. darajasini olish uchun dissertatsiya Avtoreferati. TMI: 2019.-72 b.

2. O'zbekiston Respublikasining 23.11.2021 yildagi O'RQ-730-son "Sug'urta faoliyati to'g'risida" Qonuni

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.03.2024 yildagi PQ-108-son "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori

4. Burkhanov, A. U., Yadgarov, A. A., Saidova, M. E., & Tugizova, M. S. (2024). Agricultural Insurance Protection and Food Security in the Face of Global Climate Change. In Development of International Entrepreneurship Based on Corporate Accounting and Reporting According to IFRS: Part B (pp. 75-79). Emerald Publishing Limited.

5. Akbarovich Y. A. IQLIM O'ZGARISHI TA'SIRIDAGI MOLIVAVIY YO'QOTISHLARDAN HIMOYALASHDA INDEKS SUG'URTALASHNI JORIY ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //Страховой рынок Узбекистана. – 2025. – Т. 2. – №. 1. – С. 6-8.

6. Baratova D., Olmosova M. SUG'URTALOVCHILARNING INVESTITSION FAOLIYATINI BAHOLASHDA XITOY TAJRIBASI //Страховой рынок Узбекистана. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 35-38.

7. Kizi, Tugizova Malika Sohib. "Formation and Development of the Insurance Market in the Republic of Uzbekistan." Miasto Przyszłości 30 (2022): 272-274.